

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| D.T.Tursunova | |
| Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari..... | 244 |
| Z.T.Aripov | |
| Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 247 |
| N.O.Saidova | |
| Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari..... | 251 |
| M.A.Abdubannobova | |
| O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi..... | 254 |
| O.A.Ashurova | |
| Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati..... | 257 |
| B.Latipov | |
| Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli..... | 261 |
| T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov | |
| O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi..... | 265 |
| V.T.Jo'rayev | |
| Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni..... | 269 |
| Z.M.Xursanova | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari..... | 274 |
| M.A.Jalilov | |
| O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida..... | 279 |
| Z.X.Siddiqov | |
| Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar..... | 283 |
| M.G'.Zaylobidinova | |
| Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish..... | 287 |
| Г.П.Наркабилова | |
| Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику..... | 291 |
| M.Sh.Dehqonova | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari..... | 295 |
| N.Q.Olimova | |
| Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish..... | 299 |
| D.T.Rustamova | |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish..... | 304 |
| Y.U.Egamberdiyeva | |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish..... | 309 |
| U.Y.Axmedova | |
| Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish..... | 313 |
| M.U.Buvajonova | |
| Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi..... | 317 |
| M.A.Mamasaidova, S.Sobirova | |
| Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli..... | 321 |
| M.A.G'ofurova | |
| Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish..... | 325 |
| D.M.Gazieva | |
| Psychological and pedagogical aspects of media use in education..... | 331 |



UO'K: 37.02:371.1

TA'LIM VA TARBIYA SIFATINI OSHIRISHDA HAMKORLIK KONSEPSIYASINING ROLI

РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА
ОБРАЗОВАНИЯTHE ROLE OF THE CONCEPT OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF
EDUCATION AND EDUCATIONB.Latipov 

Pedagogika-psixologiya fakulteti, yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirayotgan islohotlari va ularning ahamiyati haqida yozilgan ushbu maqola, hamkorlik konsepsiyasining rolini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Prezidentning ta'lim tizimining to'rt uzviy xalqasi sifatida belgilangan bog'cha, maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimlari hamda ilmiy madaniy muassasalarining yangi uyg'onish davrida o'ynashi kerak bo'lgan rolini tahlil qiladi. Shuningdek, oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorlik konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati ta'kidlanadi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi, har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topishi va insonparvar bo'lishiga qaratilgan. Maqolada oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun olib borilgan chora-tadbirlar, jumladan, 2012-yilda qabul qilingan 175-sonli qaror asosida amalga oshirilgan ishlar yoritilgan. Xulosa qismida barkamol va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda oila va ta'lim muassasalarining o'zni beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur maqola ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli va ahamiyatini tushunishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot materialidir.

Аннотация

В статье, посвященной реформам, проводимым Президентом Ш.М. Мирзиёевым в области образования и воспитания, рассматривается роль концепции сотрудничества. В статье анализируется роль дошкольного, школьного, высшего и среднего специального образования, а также научно-культурных учреждений как четырех неотъемлемых звеньев системы образования, определенных Президентом, в новом этапе возрождения. Также подчеркивается важность воспитания молодого поколения путем выполнения задач, поставленных в концепции сотрудничества между семьей, махаллей и образовательными учреждениями. Основная цель концепции заключается в том, чтобы каждый ребенок нашел свое место в жизни и стал гуманным человеком. В статье освещаются меры, принятые для обеспечения сотрудничества между семьей, махаллей и образовательными учреждениями, включая работу, проведенную на основе постановления № 175, принятого в 2012 году. В заключительной части подчеркивается незаменимая роль семьи и образовательных учреждений в воспитании всесторонне развитой и духовно зрелой личности. Данная статья представляет собой научно-исследовательский материал, направленный на понимание роли и значения концепции сотрудничества в повышении качества образования и воспитания.

Abstract

This article, dedicated to the reforms being implemented by President Sh.M. Mirziyoyev in the field of education and upbringing, focuses on the role of the cooperation concept. The article analyzes the role that preschools, schools, higher and secondary special education systems, and scientific and cultural institutions, as four integral links of the education system defined by the President, should play in the new era of renaissance. It also emphasizes the importance of fulfilling the tasks outlined in the cooperation concept among families, mahallas, and educational institutions in raising the young generation. The main goal of the concept is to help each child find their place in life and become a humane individual. The article highlights the measures taken to ensure cooperation among families, mahallas, and educational institutions, including the work carried out based on Decree No. 175 adopted in 2012. The concluding part stresses the invaluable role of families and educational institutions in nurturing well-rounded and spiritually mature individuals. This article serves as a research material aimed at understanding the role and significance of the cooperation concept in improving the quality of education and upbringing.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, hamkorlik, yoshlar, ota-onalar, tashabbus, konsepsiya, barkamol, mustaqil, jamiyat.

Ключевые слова: образование, обучение, сотрудничество, молодежь, родители, инициатива, концепция, зрелый, независимый, общество

Key words: education, training, cooperation, youth, parents, initiative, concept, mature, independent, society

KIRISH

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “ Eng kata boylik –bu aql zakovat va ilm, eng kata meros-bu yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik- bu bilimsizlikdir.”

“Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy madaniy muassasalarini bo’lg’usi renesansning to’rt uzviy xalqasi, deb bilamiz.

Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o’qituvchilar va ilmiy ijodiy ziyolilarimizni esa yangi uyg’onish davrining to’rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz.

Men yangi O’zbekistonni-obod va farovon, demokratik mamalakatni barpo etishda Siz, muxtaram pedagoglarni, professor-o’qituvchilarni o’zim uchun eng kata kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman.

Sizlarning xal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan, faoliyatingizni qo’llab- quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berishni Prezident sifatida o’zimga muqaddas burchim deb, hisoblayman”.degan so’zlari barchamizdan kata mas’uliyatni talab etadi.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda global o’zgarishlar va insonga xizmat qiluvchi islohatlar amalga oshirilmoqda. Shulardan ta’limga oid islohatlarning asosiy maqsadi kelajak vorislari bo’lgan yosh avlodni tarbiyalash, ona vatanimizni rivojiga munosib hissa qo’shadigan va eng muhimi globallashuv jarayonida dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan ortda qolmaslik va zamonaviy yangicha yashashni biladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Bu ma’suliyatli vazifani bajarish, barkamol avlodni tarbiyalashga oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorlik konsepsiyasida belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash juda muhim hisoblanadi.

Konsepsiya-bu narsa va hodisalarga nisbatan qarash va yetakchi g’oyalar yig’indisi, bilim va amaliy faoliyat xarakterini belgilaydi. Biror nazariyaning asosiy g’oyasi hamkorlik konsepsiyasining asosiy maqsadi- har bir bolaning xayotda o’z o’rnini topib, baxti uchun zamin yaratishga, el- yurt oldidagi ma’suliyatini seza oladigan insonparvar bo’lishiga qaratilgan.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash:

Xalqimizning boy milliy madaniy tarixi ananalari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqarilib amaliyotga jary etish:

Milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakillantirish va mustahkamlashda keng jamoaning kuchi va tajribasiga tayanish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Barchamiz yaxshi bilamizki, bola tarbiyasida 3 omil oila, mahalla, ta’lim muassasi hamkorligi muhim rol o’ynaydi. Dono halqimizda bir naql bor “qush uyasida ko’rganini qiladi” oiladagi sog’lom muhit bolalarni o’qishiga barcha sharoitlari yaratilishi va ota-onalarni pedagogic madaniyatini oshirishga ko’maklashishlari zarur. Oila umunta’lim maktablari va mahalla hamkorligini ta’minlash maqsadida 2012-yil 19-iyunda 175-sonli “Barkamol avlodni tarbiyalashga oila instituti, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish hamda ta’lim muassasalarining hamkorligini yanada yaxshilash chor tadbirlari to’g’risidagi” gi tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida O’zbekiston Respublikasi xalq ta’lim vazirligida, viloyat xalq ta’limi boshqarmalarida, barcha shahr tuman xalq ta’lim bo’limlari va umumta’lim maktablari hamda oliy ta’limlarda o’zaro hamkorlik boshqarish uchun joylarda o’z tarkibiga mahalla faollari, boshqalarga namuna bo’ladigan ota-onalar, ta’lim muassasalarining tajribali hodimlari, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning hodimlaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilgan. Unga ko’ra,- oilada sog’lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarga, ota-onaga, vatanga muhabbat tuyg’usini shakillantirish:

Talabalarning bo’sh vaqtlarini to’g’ri tashkil etish va ularni qo’shimcha ta’lim olishiga shart-sharoit yaratish:

Talabalarga sanitareya gigiyena va ekologik bilim va ko’nikmalarni sindirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish:

Ota-onaning ta’lim muassasalari va mahalla oldida o’z farzandlarining barcha hatti harakatlari uchun javobgarligini oshirish masalalari kiritilgan.

NATIJALAR

“Ma’lumki azaldan o’zbek mahallalari chinakkam milliy qadriyatlar maskani bo’lib kelgan. O’zaro mehr oqibat , axillik, totuvlik, yordamga muhtoj fuqarolar holidan habar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to’y- tomosha, hashar va marakalarni ko’pchilik bilan birgalikda

o'tkazish, yaxshi-yomon kunda birga bo'lish kabi halqimizga xos urf-odat va ananalar avvalambor mahalla muhitida rivojlangan va shakillangan".

"Mahalla-ham ota ham ona" yoki "bir bolaga yeti qo'ni ota-ona" degan xikmatomus naqlni anashu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilishadi.

Farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muxokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollada bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik qonun doirasida boshqa choralarni ko'rish. Mahalla hududidagi ta'lim muassasalarida iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash, farzandlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribalarini ommalashtirish, mahalla hududida istiqomat qilayotgan xalq ustalari, sanatkorlar, ziyolilar imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va "ustoz-shogirt" yo'nalishida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish kabi vazifalar belgilangan.

MUHOKAMA

Ta'lim muassalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Muassasa rahbari jamoatchilik kengashining rahbari sifatida faoliyatga rahbarlik qiladi:

Huquqiy tarbiyaning talaba yoshlar, ota-onalar, jamoatchili bilan amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mavkurani targ'ib qilish, aqidapaslik, diniy ekstremizm va milliy taraqqiyatimizga zararli boshqa g'oyalarni kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish:

Talaba yoshlarni ta'lim-tarbiya jarayonida turli xil chalg'ituvchi vositalarning zarari va ularning oqibatlarini oldini olish bo'yicha keng targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish:

Imkoniyati cheklangan talabalarni tibbiyot komissiyasi orqali belgilangan imtiyozlardan foydalanishga ko'maklashish.

Talabalarning bo'sh vaqtlarining mazmunli tashkil etishda ta'lim muassasasi va mahallada fan, sport qiziqishlar bo'yicha to'garaklar faoliyatini kuchaytirish va doimiy monitoring yuritish:

Mahalladagi noqobil, notinch, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim va ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan oilalar farzandlari, ichki ishlar profilaktika nazoratiga olingan talabalarning har tomonlama qo'llab-quvvatlash va nazoratga olish:

Voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish, dars jarayonida bemaqsad yurganlarni aniqlash va ularni o'qishga qaytishi hamda jamoatchilik kengashi a'zolari va keng jamoatchilik ishtirokida "Talaba", "Davomati" kabi profilaktik reydlarni tizimli tashkil etish:

Qayt etilgan vazifalarni hayotga tatbiq erish ijrosiga ma'suliyat bilan yondashish, barcha ma'sul sub'ektiv-avvalo oila, mahalla, ta'lim muassasalari shuningdek jamoat kengashlari a'zolarining hamkorligidagi dolzarb vazifalari hisoblanadi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayoni qanchalar yuksak bo'lsa, shuncha ko'p ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy yuksalish bo'laveradi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qaroriga ko'ra "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat Siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasi qabul qilingan. ta'kidlanishicha "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Hukumat qarorlari, BMT ning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari" Forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi- yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat. Konsepsiya BMT ning "Yoshlar 2030" strategiyasida belgilangan "Yoshlar manfaatlarini ko'zlab ular bilan ishlash" bosh tamoyiliga asoslanadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin

qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlat tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tabor qaratilayotganidir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki, barkamol va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda oila va ta'lim muassasasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Mening fikrimcha ta'lim-tarbiyaning asosiy o'chog'i oila. Yoshlarga ta'lim-tarbiyani oilada to'g'ri yo'naltirish lozim. Bu borada oila, mahalla va ta'lim muassasasining birgalikdagi faoliyati o'z samarasini ko'rsatadi. Jamiyatimizning har bir a'zosi oila, mahalla va ta'lim muassasasi takomillashtirishga, hamkorlikning mustahkamlashga hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamon yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakillantirishda, jamiyatga tarbiyali, odobli, vatanparvar, fidoiy, dunyo qarashi keng, yuqori kasb mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyun 175-
2. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi
3. "Tarbiya jarayonida muassasalarning o'zaro hamkorligi".
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori.
5. Маматов, М. (2015). Гуманистическая сущность суфизма. Credo New,
6. <https://docviewer.yandex.ru/view> (2-2), 2-2.